



ABDULLA ORIPOV IJODIDA POETIK ASOSLAR VA SHAKLLANISH MANBALARI

**BATIROVA NAZOKAT
BAXTIYOROVNA**

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent
axborot texnologiyalari universiteti, assistenti)*

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatining yetakchi namoyondalaridan biri Abdulla Oripov ijodining poetik asoslari va shakllanish manbalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda shoirning badiiy tafakkurini shakllantirgan milliy ruh, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va estetik tamoyillar yoritiladi. Shuningdek, xalq og'zaki ijodi an'analari, mumtoz adabiy meros hamda zamonaviy ijtimoiy-madaniy muhitning Oripov poetikasiga ta'siri ochib beriladi. Maqolada xalq og'zaki ijodi, mumtoz an'alar va zamonaviy poetik ong sintezi shoir ijodining asosiy xususiyati ekanligi asoslanadi hamda uning o'zbek adabiyotidagi o'zni ilmiy jihatdan baholanadi.

Kalit so'zlar:

Abdulla Oripov; o'zbek she'riyati; poetika; xalq og'zaki ijodi; mumtoz adabiyot; milliy ruh; badiiy sintez.

Kirish.

Abdulla Oripov XX asr o'zbek she'riyatining rivojida o'ziga xos badiiy maktab yaratgan ijodkor sifatida alohida o'rin egallaydi. Uning she'riyati milliy an'alar, xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyot merosiga tayanib, zamonaviy poetik tafakkur bilan uyg'unlashgan holda shakllangan. Shoir ijodida inson, jamiyat va ma'naviyat masalalari estetik va falsafiy mushohada bilan yoritiladi.

Abdulla Oripov ijodining poetik asoslari va shakllanish manbalarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish, shuningdek, shoir poetikasida folklor, mumtoz adabiyot va zamonaviy estetik qarashlarning o'zaro munosabatini aniqlashdan iborat. XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyotida Abdulla Oripov ijodi alohida o'rin tutadi. Uning she'riyati milliy adabiy tafakkurning yangi bosqichini boshlab bergan, poetik tafakkur va badiiy ifoda imkoniyatlarini kengaytirgan noyob hodisa sifatida e'tirof etiladi. Shoir ijodi nafaqat badiiy mukammalligi, balki chuqur falsafiy mushohadalari, milliy ruh va umuminsoniy g'oyalar uyg'unligi bilan ham ajralib turadi. Abdulla Oripov she'riyati orqali o'zbek she'riyatida inson, vatan, vijdon, e'tiqod, tarix va zamon masalalari yangi poetik talqinlarda namoyon bo'ldi.

Abdulla Oripov poetikasining shakllanishi murakkab va ko'p qatlamli jarayon bo'lib, u milliy adabiy an'alar, xalq og'zaki ijodi, mumtoz sharq she'riyati hamda jahon adabiyoti tajribalari bilan uzviy bog'liqdir. Shoir bir tomondan Alisher Navoiy,

Bobur, Mashrab singari mumtoz adabiyot namoyandalarining badiiy-estetik merosidan ilhom olgan bo'lsa, ikkinchi tomondan zamonaviy poeziyaning erkin fikrlash ruhi va badiiy izlanishlarini o'zlashtirdi. Aynan shu uyg'unlik Abdulla Oripov she'riyatida poetik asoslarning mustahkam va o'ziga xos shakllanishiga zamin yaratdi.

Shoir ijodida poetik asoslar, avvalo, so'zga bo'lgan yuksak e'tibor, obrazlilik, ramziy fikrlash, ichki lirizm va ohangdorlik orqali namoyon bo'ladi. Uning she'rlarida an'anaviy vazn va qofiya bilan bir qatorda, erkin she'r elementlari ham faol qo'llanib, mazmun va shakl o'rtasidagi uyg'unlik ta'minlanadi. Abdulla Oripov she'riyati shakllanish manbalarini o'rganish shoirning badiiy tafakkuri qaysi adabiy, falsafiy va ijtimoiy omillar ta'sirida kamol topganini anglash imkonini beradi. Abdulla Oripov she'riyatidagi poetik asoslar va ularning shakllanish manbalarini tahlil qilish orqali o'zbek zamonaviy poeziyasining rivojlanish qonuniyatlarini, milliy adabiy tafakkurning uzluksizligi va yangilanish jarayonlarini yanada chuqurroq anglash mumkin bo'ladi. Shu bois ushbu mavzu adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan ham, ma'naviy-ma'rifiy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism.

Abdulla Oripov she'riyati zamonaviy o'zbek adabiyotida o'ziga xos poetik tizimga ega ekanligi aniqlandi. Shoir ijodining asosini so'zning ma'naviy-estetik yukdorligi, obrazli tafakkur, ramziy ifoda va lirik qahramonning ichki ruhiy holatini chuqur ochib berish tashkil etadi. Oripov she'rlarida badiiy shakl tashqi bezak vazifasini emas, balki mazmunni chuqurlashtirishga xizmat qiluvchi muhim poetik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Avvalo, mumtoz o'zbek adabiyoti an'analari, xususan, Alisher Navoiy ijodiga xos badiiy tafakkur Oripov she'riyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Bu ta'sir shoirning so'zga mas'uliyat bilan yondashuvi, ramziy obrazlar orqali fikrlashi va ichki lirizmga urg'u berishida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, Oripov mumtoz an'anani bevosita takrorlamaydi, balki uni zamonaviy ijtimoiy-ma'naviy muhit bilan uyg'unlashtiradi. Abdulla Oripov she'riyatida lirik qahramon mumtoz adabiyotdagi taslimkor yoki mutlaq ilohiy timsoldan farqli ravishda, zamonaviy inson sifatida tasvirlanadi. Shoir lirik qahramoni o'z zamoni, jamiyat va tarix oldidagi mas'uliyatni chuqur his qiladi, vijdon va insoniy qadriyatlar masalasida faol mushohada yuritadi. Bu holat Oripov poetikasida falsafiy yo'nalishning kuchayganini ko'rsatadi.

Abdulla Oripov ijodida Alisher Navoiyning badiiy ta'sirlari, avvalo, barcha ijodkorlar kabi ulug' shoirni ustoz sifatida bilishida, Navoiy besh asr oldin chiqargan xulosalarni yangidan tahlil etishda namoyon bo'ladi. Ma'lumki, shoir yoki yozuvchi ijodining o'ziga xosligini yoki ular ijodidagi mushtaraklikni so'z qo'llash mahorati, badiiy tasvir vositalaridan qay darajada foydalanganligini tahlil etish orqali ham yoritish imkoniyati keng.

Navoiyga qaytish-uzliksiz va ilhombaxsh jarayon hisoblanadi. Uning ijodini davomiyligini o'rganish ibratli xulosalarga kelish imkonini beradi. Shuning uchun ham Navoiy yashagan davrdan boshlab bugunga qadar shoir siymosi badiiy talqin etib kelinmoqda. Navoiyning hayoti va ijodi haqiqiy ibrat maktabidirki, shoir tajribalariga tayanib, did saviyani yuksaltirish har bir iste'dod uchun ijodiy muvaffaqiyat garovidir. Chunki Navoiy yashagan davr va buyuk shaxs ibratli hayot yo'lining ta'siri jozibasi yuksak, u hamisha barhayotdir.

Abdulla Oripov ijodining shakllanishida XX asr o'zbek adabiy jarayoni va ijtimoiy-ma'naviy muhit muhim omil bo'lgan. Shoir she'riyatida milliy ong, tarixiy xotira va zamon muammolari poetik tafakkur orqali badiiy ifodalanadi. Bu jihat Oripov she'riyatini faqat lirik hodisa sifatida emas, balki milliy tafakkurning badiiy ifodasi sifatida baholash imkonini beradi. Abdulla Oripov she'riyatining poetik asoslari va shakllanish manbalari milliy adabiy an'analarga tayangan holda zamonaviy estetik talablar bilan uyg'unlashganini ko'rsatadi. Shoir ijodida an'ana va yangilik o'rtasidagi muvozanat saqlanib, individual poetik uslub shakllangan. Bu esa Abdulla Oripovni zamonaviy o'zbek poeziyasining yetakchi namoyandalardan biri sifatida ilmiy asosda e'tirof etish imkonini beradi.

Har bir millat adabiyotining betakror va umum insoniyligini jahonga ko'rsatadigan buyuk ijodkorlar bor. Hazrat Navoiy o'zbek millatini ulug'lovchi, tafakkur olamining keng ekanligini dunyoga namoyon etgan ijodkorlardan biridir. Navoiy ijodidan ta'sirlanish uning tiriklik davridan boshlangan bo'lib, hozirgi kunlarda ham o'zbek shoir va yozuvchilari undan bahramand bo'lib kelmoqda. Shunday ijodkorlardan biri Abdulla Oripovdir. Insoniylikning chinakam mezonini bo'lmish hayo, imon, saxovat kabi juda ko'p xislatlar haqida so'z yurituvchi "Hayrat ul- abror" asari adabiy xazinamizning eng yorug' gavharlaridan biridir. Abdulla Oripov ijodiy xazinasidan ham ayni shu gavharlar jilosi bo'y ko'rsatib turadi.

"Hayrat ul- abror" ning birinchi maqolati imon haqida. Zero, imon odamiylikning bosh mezonidir. Bu haqida asarda shunday yoziladi:

*Kimki jahon ahlida inson erur,
Bilki nishoni anga imon erur.*

Abdulla Oripov nazarida esa ham shunday. Iymon odamiylikning asosi. Iymonga asoslanmagan hamma narsa yolg'on. Hatto u hujrat bo'lsa ham:

*Hujrating shunchaki sayohat erur,
Unitar bo'lsang gar zarra iymonni.
Makkaga yetti qat borgancha bo'lur,
Boshini silasang o'ksik insonni.*

Demakki, o'ksik bir insonning boshini silash, unga saxovat ko'rsatish iymonning bir qismi hisoblanadi. Aslida har ikki ijodkor fikricha, saxovat ko'rsatish eng ulug' amallardan biri. Bu holat hech qanday ta'malarsiz, chindan ham ko'makka muhtoj insonga ko'rsatilganda saxovat maqomiga ko'tariladi. Saxovatning katta kichigi bo'lmaydi.

Abdulla Oripov "Haj daftari" dan o'rin olgan "Ezgulik" she'rida shunday yozadi:

*Axir, Rasululoh demish-ku ul dam:
Hamisha saxovat yo'lidan yurgil.
Mayizday qop-qora boshli habash ham
Yaxshi ish qilganda yonida turgil.*

Chindan ham saxovat eng xayrli amallardan biri. Faqatgina u chin ko'ngildan amalga oshsagina uning darajasi yuksaladi.

Alisher Navoiy va Abdulla Oripov ijodidagi ushbu mushtaraklik har ikki shoirning ham xalq g'ami xalq dardi bilan yashaganligi isbotidir. Hazrat Navoiyning o'zi bu haqda shunday yozadi:

*Odamiy ersang demagil odamiy
Oningkim, yo 'q xalq g'amidin g'ami.*

Odobning yana bir muhim jihatlaridan biri ota-onaga hurmat, ehtirom. inson bu ikki zot qoshida qarzini aslo uzolmaydi, ularning xizmatini qilish har bir insonning muqaddas va sharaflı burchlaridan biri hisoblanadi. Har ikki ijodkor bu masalaga alohida to'xtaladi. Ota va ona haqida so'z yuritishar ekan, insonning eng ulug' burchini bajarish farz ekanligini ta'kidlaydi.

*Boshni fido ayla ato qoshig'a,
Jismni qil sadqa ano boshig'a.
Ikki jahonimg'a tilarsen fazo,
Hosil et ushbu ikkisidin rizo.*

Demak ikki dunyo saodatiga ota va onaga xizmat qilmoq orqaligina erishmoq mumkin. Jannat onalar oyog'i ostida. Abdulla Oripov ham aynan shu haqida fikr yuritadi:

*Ka'ba qopqosida turgan ey posbon,
Avval onalarning ochgin yo'llarin,
Onalar poyiga tiz cho'k o'shal on,
Tavof qil ko'zga surt, o'pgin qo'llarin.*

Ko'rinib turganidek, har ikki ijodkor asarlarida mutanosib bo'lgan mavzularni aks ettiradi. Abdulla Oripov ijodida Alisher Navoiyga ergashish undan ta'sirlanish yaqqol sezilib turadi.

Abdulla Oripov Alisher Navoiyning adabiy merosini chuqur bilganligi, asrlar silsilasida kelayotgan adabiy an'analarga noyob iste'dodi bilan sayqal berib, o'ziga xos tarzda davom ettirganligidandir. Umuman, Abdulla Oripov ijodida Navoiy ijodining ta'siri kuchli ekanini yuqoridagi asarlar ko'rsatib turibdi. Abdulla Oripov va Navoiy asarlarini qiyoslaganda, ular ijodida mushtarak jihatlar ko'p ekani kuzatiladi. Xususan, mavzular mutanosibligi, an'anaviyligi buning isbotidir. Abdulla Oripov ijodiy kamolotida buyuk Navoiy san'atxonasiining ta'siri katta bo'lganini ko'rsatadi.

Abdulla Oripov ijodiy kamolotida ham Navoiyning boy an'analari bo'rtib chiqadi. Biroq faqat an'ana doirasida qolish taqlidga olib keladi. Shoir esa taqlidni qoralaydi. Go'yoki

“Taqlid-butun mahalla biladigan oqsoqolning choponini boshqa birov kiyib yurganday gap.¹

Shu o'rinda ikki buyuk shoir ijodida radiflari aynan o'xshash ikki g'azaliga e'tibor qaratsak. Xalq orasida Navoiyning “Kelmadi” radishli g'azali mashhur. Mazkur g'azal “Ilk devon” ga kiritilgan bo'lib, Navoiy uni taxminan 24-25 yoshlarida yozgan. Shundan kelib chiqilsa, g'azalda majoziy ishq ustuvor. Abdulla Oripovning “Kelmading” radifli g'azali poetik mazmuniga ko'ra ham, badiiy shakl jihatdan ham Navoiy g'azali darajasida yozilgan. Alisher Navoiy g'azalida mana bunday satrlarni o'qish mumkin

*Lahza-lahza chiqdimu chekdim yo'lida intizor,
Keldi jon og'zim g'ayu ul sho'xi badxo' kelmadi.²*

¹ Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. To'rt jildlik. To'rtinchi jild. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001. 29.

² Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma jildlik. Yettinchi jild. - Toshkent: Fan, 1990.

Abdulla Oripov gʻazalining matlasi quyidagicha:

*Subhidamda uchdi ohim kavkabistonga qadar,
Keldiyu tubsiz falaklardan sado, bir kelmading.*³

Gʻazalda turkiy soʻzning oltin davri nafasini beruvchi soʻzlar aynan ishtirok etsa-da, Choʻlpon taʼbiridek, “Endi bir xil, bir xil, bir xil” emas. Masalan Navoiy “Kelmadi” radifli gʻazalida ishlatgan “shoʻxi badxo” birikmasi Abdulla Oripovning “Yozajakman” radifli gʻazalida quyidagicha ishlatiladi:

*Soldi dilima qancha alam ul shoʻxi badxoʻ,
Bilmamki, axir qay biri qurbon yozajakman.*⁴

Yana Abdulla Oripov mumtoz badiiy sanʼatlardan ham gʻazallarida ustalik bilan foydalangan. Ishq mavzusi har bir shoir sheʼriyatining jon tomiridir. Ayniqsa, Navoiyda hech bir bayt yoʻqki, ishq oshiqlik tarannum etilmagan boʻlsa. Uning “Xamsa” dostoni markazida ham aynan ishq mavzusi turadi. “Xamsa” dostoni “Hayrat ul-abror” dagi maqolat esa ishq taʼrifiga bagʻishlangan. Quyidagi misralar “Xamsa” dostonida keltirilgan.

*Boʻlmasa ishq, ikki jahon boʻlmasun.
Ikki jahon demaki, jon boʻlmasun.*⁵

Navoiyni koʻp mutolaa qilgan undan taʼsirlangan zamonaviy sheʼriyatda buyuk salafi anʼanalarini yangilash sharafiga erisha olgan Abdulla Oripov ham ishqni jon ozigʻi quyosh deb biladi:

*Faqat muhabbatga topingil, ey qalb
Sen mehr koʻrgaysan oʻshal quyoshdan.
Axir bobolar ham demishlar qadim;
Muhabbat yaratgan dunyoni boshdan.*⁶

Ushbu misralar qiyosi ikkala shoirning ishq haqidagi qarashlari uygʻun ekanligi koʻrinadi. Obrazli tasvir va ifoda har bir shoirda oʻziga xos. Matbuotdagi suhbatlardan birida Abdulla Oripov “Gʻazallaringizda nima kuchli: taqlidmi, taʼsirmi?” degan savolga quyidagicha javob bergan edi: “Men yovvoyiroq oʻsgan meva daraxtiga oʻxshayman. Issiqxonada oʻsmaganman. Sharoit taqozo qilmagan. Taʼsirlanish bor, buni rad qilmayman. Taqlid yoʻq”.

Abdulla Oripov mumtoz sheʼriyat, xususan, Alisher Navoiy gʻazaliyotini munosib davom ettirdi. Taqlidni ijodiy tafakkur rivoji yoʻlidagi toʻsiq deb bildi. Undan saqlandi. Mumtoz gʻazal janrida ijod qilar ekan poetik mazmun va shaklda yangiliklar qildi. Maʼlum obrazlar talqinini takomilga yetkazdi. Bu esa oʻz navbatida, shoir lirik merosida mumtoz poetik anʼana va uning takomili masalalarini oʻrganishni taqozo etadi. Adabiyot hamisha anʼanalardan oziqlanadi. Anʼanaviylikdan oʻsib chiqib, yangilanadi. Taraqqiyotning yangi pogʻonalariga koʻtariladi. Chunki ular novatorlikka borish, yangilanish yoʻllaridan saboq beradi. Ijodkorlarimizni ijodning yuksak choʻqqilari sari yetaklashga xizmat qiladi. Abdulla Oripov sheʼriyatining poetik asoslari va shakllanish manbalari milliy adabiy anʼana hamda zamonaviy poetik

³ Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. Toʻrt jildlik. Ikkinchi jild. Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti. - Toshkent. 2001. 103.

⁴ Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. Toʻrt jildlik. Birinchi jild. Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti. - Toshkent. 2000. 148.

⁵ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar toʻplami. yigirma jildlik. Yettinchi jild. - Toshkent; Fan, 1991.

⁶ Abdulla Oripov Birinchi muhabbatim. Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti. - Toshkent. 2018.

tafakkur uyg'unligi asosida shakllanganini ko'rsatdi. Shoir ijodida so'zning ma'naviy-estetik yukdorligi, obrazli fikrlash va ramziy ifoda yetakchi poetik tamoyillar sifatida namoyon bo'ladi. Oripov she'riyati mazmun va shakl birligini ta'minlagan holda, o'zbek poeziyasida badiiy tafakkurning yangi bosqichini ifodalaydi.

Abdulla Oripov poetikasining shakllanishida mumtoz o'zbek adabiyoti, xususan, Alisher Navoiy ijodiga xos badiiy-estetik qarashlar muhim manba bo'lib xizmat qilgan. Shu bilan birga, shoir ijodida XX asr o'zbek adabiy jarayoni, ijtimoiy-ma'naviy muhit va zamonaviy estetik izlanishlarning ta'siri ham yaqqol seziladi. Bu omillar Oripov she'riyatida an'ana va yangilik o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlagan. Abdulla Oripov she'riyatida poetik vositalar — metafora, ramz, takror va ohangdorlik — tizimli va maqsadga muvofiq qo'llaniladi. Ushbu vositalar shoir ijodida g'oyaviy mazmunni chuqurlashtirish va she'riy matnning ichki yaxlitligini ta'minlashga xizmat qiladi. Natijada shoir she'riyati nafaqat estetik, balki ma'naviy-falsafiy ta'sir kuchiga ega bo'lgan badiiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Oripov she'riyatining poetik asoslari va shakllanish manbalari zamonaviy o'zbek poeziyasining rivojlanish jarayonida muhim ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi. Shoir ijodini ushbu yo'nalishda o'rganish milliy adabiy tafakkur taraqqiyotini chuqurroq anglashga, shuningdek, Oripov poetikasining o'ziga xos jihatlarini ilmiy asosda baholashga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. yigirma jildlik. Yettinchi jild. - Toshkent: Fan, 1991.
2. Abdulla Oripov Birinchi muhabbatim. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. - Toshkent. 2018
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma jildlik. Yettinchi jild. - Toshkent: Fan, 1990.
4. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. To'rt jildlik. Ikkinchi jild. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. - Toshkent. 2001. 103.
5. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. To'rt jildlik. Birinchi jild. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. - Toshkent. 2000. 148.
6. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. To'rt jildlik. Birinchi jild. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. - Toshkent. 2000. 158.
7. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. To'rt jildlik. Birinchi jild. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. - Toshkent. 2000. 84.
8. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. To'rt jildlik. To'rtinchi jild. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001. 29.